



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 853,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 6,9 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 364,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 488,9 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2020-yil yanvar-iyun

- Aholi soni **6,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **9,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **2,2 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-iyun oylarida)



## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020-yillar 1-iyul holatiga ming kishi)

	2019-yil	2020-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>836,8</b>	<b>853,2</b>	<b>102,0</b>
Guliston sh.	89,5	91,5	102,2
Shirin sh.	18,6	18,8	101,1
Yangiyer sh.	42,8	43,7	102,1
tumanlar:			
Oqoltin	51,3	52,3	101,9
Boyovut	128,3	130,4	101,6
Guliston	71,5	73,2	102,4
Sayxunobod	76,4	77,7	101,7
Mirzaobod	72,1	74,0	102,6
Sardoba	65,1	66,4	102,0
Sirdaryo	126,8	129,1	101,8
Xovos	94,4	96,1	101,8


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 130,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 129,1 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,8 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 43,7 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,6 % ni, Guliston tumanida 2,4 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 1,1 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-iyul holatiga ming kishi)



### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2020-yil 1-iyul holatiga, % da)




## Demografik holat

### Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishi)

	erkak	ayol
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>428,4</b>	<b>424,8</b>
Guliston sh.	45,7	45,8
Shirin sh.	9,2	9,6
Yangiyer sh.	21,8	21,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	26,3	26,0
Boyovut t.	65,9	64,5
Guliston t.	36,2	37,0
Sayxunobod t.	38,8	38,9
Mirzaobod t.	38,5	35,5
Sardoba t.	33,7	32,7
Sirdaryo t.	64,3	64,8
Xovos t.	48,0	48,1

### Tumanlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1-iyul holatiga to`g`ri keladigan aholi, 1 kv kmga)



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 9,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,5 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 22,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (19,6 promilledan 30,8 promillega), Yangiyer shahrida (19,8 promilledan 22,1 promillega), Sardoba tumanida (22,3 promilledan 22,7 promillega) Sirdaryo tumanida (20,7 promilledan 21,5 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Mirzaobod tumanida (25,1 promilledan 22,4 promillega) hududlarda qayd etildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning xomiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)**



## Demografik holat

### Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-iyun)


	2019-yil.	2020-yil.	O`shish sur`ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>9096</b>	<b>9518</b>	<b>104,6</b>
Guliston sh.	869	1395	160,5
Shirin sh.	168	159	94,6
Yangiyer sh.	419	478	114,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	564	507	89,9
Boyovut	1472	1372	93,2
Guliston	785	809	103,1
Sayxunobod	876	886	101,1
Mirzaobod	892	821	92,0
Sardoba	719	745	103,6
Sirdaryo	1298	1372	105,7
Xovos	1034	974	94,2

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 1,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi. (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 4,4 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Sardoba tumanida (3,6 promilledan 3,8 promillega) tumanida kuzatilgan bo'lib, aksincha Yangiyer shahrida (6,1 promilledan 4,3 promillega) kamayish holati kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** 1,0 ming kishi  
**Ayollar:** 0,8 ming kishi

### Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi  
(yanvar-iyun)

	2019-yil.	2020-yil.	O`sinh sur`ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1834</b>	<b>1763</b>	<b>96,1</b>
Guliston sh.	225	224	99,6
Shirin sh.	40	39	97,5
Yangiyer sh.	130	94	72,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	91	96	105,5
Boyovut	257	251	97,7
Guliston	164	162	98,8
Sayxunobod	169	157	92,9
Mirzaobod	139	134	96,4
Sardoba	117	126	107,7
Sirdaryo	310	313	101,0
Xovos	192	167	87,0




## Demografik holat

2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,6 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,3 % i o'simtalardan, 6,4 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,2 % i yuqumli parazitar kasalliklardan hamda 14,5 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 109 nafarni tashkil etib, ularning 58,7 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 33,0 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,3 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2156 ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (144,1 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Shirin shahri (51,7 %), Mirzaobod (58,4 %), Guliston (62,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 525 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Boyovut (152,5%), Guliston (117,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2156</b>	<b>5,1</b>
Guliston sh.	438	9,7
Shirin sh.	30	3,2
Yangiyer sh.	138	6,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	126	4,9
Boyovut t.	314	4,9
Guliston t.	156	4,3
Sayxunobod t.	138	3,6
Mirzaobod t.	139	3,8
Sardoba t.	153	4,7
Sirdaryo t.	303	4,7
Xovos t.	221	4,6

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>525</b>	<b>1,2</b>
Guliston sh.	93	2,1
Shirin sh.	21	2,2
Yangiyer sh.	34	1,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	23	0,9
Boyovut t.	90	1,4
Guliston t.	47	1,3
Sayxunobod t.	24	0,6
Mirzaobod t.	43	1,2
Sardoba t.	29	0,9
Sirdaryo t.	83	1,3
Xovos t.	38	0,8

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2593</b>	<b>2156</b>	<b>83,1</b>	<b>568</b>	<b>525</b>	<b>92,4</b>
Guliston sh.	304	438	144,1	88	93	105,7
Shirin sh.	58	30	51,7	20	21	105,0
Yangiyer sh.	143	138	96,5	51	34	66,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	188	126	67,0	36	23	63,9
Boyovut	386	314	81,3	59	90	152,5
Guliston	249	156	62,7	40	47	117,5
Sayxunobod	210	138	65,7	48	24	50,0
Mirzaobod	238	139	58,4	44	43	97,7
Sardoba	197	153	77,7	39	29	74,4
Sirdaryo	354	303	85,6	96	83	86,5
Xovos	266	221	83,1	47	38	80,9

**Migratsiya.** 2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,3 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	4,4	3,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,7	4,0
<b>Migratsiya saldosini</b>	-0,3	-0,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,3 ming kishi), Xovos tumanida (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.

